

MADANIYATLARARO MULOQOT — O‘ZBEKISTON YOSHLARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH OMILI

Namozova Dilorom Tursunovna,
Farg‘ona davlat universiteti
G-mail: diloromnamozova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada global transformatsiyalar sharoitida madaniyatlararo muloqotning O‘zbekiston yoshlari intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishdagi o‘rni tadqiq etilgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosining zamonaviy madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni falsafiy mushohada etilgan. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar asosida yoshlarning madaniyatlararo kompetensiya darajasi va uning kognitiv rivojlanishga ta’siri baholangan.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, intellektual salohiyat, yumshoq kuch, raqamli diplomatiya, identitet, kognitiv moslashuvchanlik, milliy o‘zlik.

Аннотация. В данной статье исследуется роль межкультурного диалога в реализации интеллектуального потенциала молодежи Узбекистана в условиях глобальных трансформаций. Осуществлен философский анализ роли наследия мыслителей Центральной Азии в современном межкультурном диалоге. На основе проведенных социологических исследований оценен уровень межкультурной компетенции молодежи и её влияние на когнитивное развитие.

Ключевые слова: межкультурный диалог, интеллектуальный потенциал, мягкая сила, цифровая дипломатия, идентичность, когнитивная гибкость, национальное самосознание.

Abstract. This article examines the role of intercultural dialogue in unleashing the intellectual potential of Uzbekistan's youth in the context of global transformations. The role of the heritage of Central Asian thinkers in contemporary intercultural dialogue is philosophically analyzed. Based on the conducted sociological research, the level of intercultural competence among youth and its impact on cognitive development are assessed.

Keywords: intercultural dialogue, intellectual potential, soft power, digital diplomacy, identity, cognitive flexibility, national identity.

Kirish. XXI asrning birinchi yarmi global ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning keskin transformatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning va sun‘iy intellekt tizimlarining hayotning barcha jabhalariga shiddatli kirib borishi hamda madaniy relyativizmning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda davlatlarning xalqaro maydondagi barqarorligi va raqobatbardoshligi nafaqat ularning moddiy-harbiy yoki tabiiy resurslariga, balki to‘plangan intellektual kapitali va insonga yo‘naltirilgan innovatsion strategiyasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi kabi demografik jihatdan aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etadigan mamlakatda, yosh avlodning intellektual salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o‘sish masalasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz uchinchi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib qo‘ydik. Buni esa faqat zamonaviy bilimga ega, intellektual rivojlangan va o‘zligini anglagan yoshlar bilangina amalga oshira olamiz”.[1]

Ushbu strategik vazifa doirasida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish shunchaki klassik shakldagi ta’lim berish va axborot yodlatish bilan cheklanmaydi.

Zamonaviy “bilimlar iqtisodiyoti” sharoitida yuqori intellektual salohiyat — shaxsning yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi, nostandart vaziyatlarda tanqidiy qaror qabul qilishi, transmilliy jamoalarda ishlay olishi va turli madaniy kodlarni to‘g‘ri anglash qobiliyati bilan o‘lchanadi. Ya’ni, intellektual salohiyatning bugungi kundagi asosiy o‘lchovlaridan biri — madaniyatlararo muloqot kompetensiyasidir.

Faqat bitta milliy yoki hududiy qobiq ichida cheklanib qolgan yosh avlod global raqobatbardoshlikka erisha olmaydi. Madaniyatlararo muloqot yoshlar dunyoqarashini kognitiv jihatdan kengaytiradi, ularni global ilmiy oqimga integratsiya qiladi va mafkuraviy immunitetini mustahkamlaydi. Shundan kelib chiqib, madaniyatlararo muloqotni O‘zbekiston yoshlari intellektining transformatsion omili sifatida sotsiologik, falsafiy va siyosiy jihatdan fundamental tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy muammolaridan biridir.

Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — madaniyatlararo muloqot fenomenining O‘zbekiston yoshlari intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishdagi o‘rni, funksiyalari va ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarini nazariy hamda empirik jihatdan ochib berish, shuningdek, global madaniy ekspansiya sharoitida milliy identitetni asragan holda intellektual salohiyatni multiplikatsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Madaniyatlararo muloqot va intellektual salohiyat tushunchalarining zamonaviy siyosiy-falsafiy va kognitiv konsepsiyalarini tahlil qilish;
- Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosidagi bag‘rikenglik va muloqot madaniyatining tarixiy-falsafiy asoslarini o‘rganish;
- O‘zbekiston yoshlarining madaniyatlararo muloqot jarayonlaridagi ishtiroki va bu jarayonning ularning tanqidiy, kreativ fikrlashiga ta’sirini empirik (sotsiologik) usullar yordamida baholash;

Adabiyotlar tahlili. Madaniyatlararo muloqot va uning shaxs hamda jamiyat intellektual, siyosiy, ijtimoiy hayotiga transformatsion ta’siri xalqaro hamda milliy ilmiy maktablar tomonidan turli metodologik paradigmlar doirasida o‘rganib kelinmoqda. Ushbu muammoning nazariy-metodologik poydevorini uchta ustuvor yo‘nalishga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Siyosiy fanlar doirasida madaniyatlararo muloqot muammosi asosan xalqaro ta’sir va global xavfsizlik kontekstida ko‘rib chiqiladi. Amerikaning taniqli siyosatshunosi Jozef Nay o‘zining “Yumshoq kuch” nazariyasida davlatlarning tashqi dunyoga o‘z madaniyati, jozibador g‘oyalari va siyosiy qadriyatlarini muvaffaqiyatli eksport qila olish salohiyatini tahlil qiladi.[4] Nayning fikricha, yoshlar o‘rtasidagi madaniyatlararo va akademik muloqot kanallari bu kuchning asosiy generatori bo‘lib, u harbiy yoki iqtisodiy tazyiqsiz dunyoda intellektual hamkorlik muhitini o‘rnatish imkonini beradi.

Ushbu qarashga ma'lum ma'noda muqobil ravishda, Samuel Hantington o'zining shov-shuvli "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarida madaniy va diniy identifikatsiyani global nizolarning yangi chiziqlari sifatida tasvirlaydi.[5] Hantington gumanistik muloqot imkoniyatlariga shubha bilan qarab, dunyoni madaniy bloklar to'qnashuvi maydoni deb baholaydi. Biroq, zamonaviy siyosiy tizimlar taraqqiyoti shuni ko'rsatdiki, Hantingtonning bu pessimistik prognozini neytrallashtirishning yagona chorasi aynan madaniyatlararo va sivilizatsiyalararo konstruktiv muloqot mexanizmlarini yoshlar ongiga singdirishdir.

Francis Fukuyama esa "Identitet" asarida zamonaviy dunyoda madaniy o'zlikni tan oldirishga bo'lgan ichki ehtiyoj siyosiy va ijtimoiy barqarorlikning asosiy shartiga aylanganini ko'rsatadi.[6] Fukuyama tahliliga ko'ra, madaniyatlararo muloqot yoshlarga o'zgarlar madaniy heritaji va dunyoqarashini inkor etmagan holda o'z identitetini gumanistik shaklda namoyon qilish imkonini beradi.

Xalqaro munosabatlarda madaniy hamkorlikning asimmetrik jihatlarini tadqiq etgan olim Edvard Said o'zining klassik "Orientalizm" asarida G'arb va Sharq o'rtasidagi madaniy muloqotning asrlar davomida teng bo'lmagan kuchlar nisbatida shakllanganini keskin tanqid ostiga oladi.[7] Said qarashlari bugungi kun yoshlari uchun madaniyatlararo muloqotga kirishishda "ko'r-ko'rona taqlidchilik" (madaniy assimilyatsiya va tobelik) xavfidan ogoh etuvchi muhim metodologik manbadir.

Falsafiy yo'nalishda Yurgen Xabermas o'zining "Kommunikativ harakat nazariyasi" doirasida ideal muloqot muhitini o'rganadi.[8] Xabermas fikricha, agar muloqot har qanday mafkuraviy yoki iqtisodiy tazyiqlardan xoli bo'lib, ratsional axborot almashish va konsensusga yo'naltirilsa, u subyektlarning (ayniqsa yoshlarning) intellektual erkinligini va ijodiy salohiyatini portlovchi darajada oshiradi.

Madaniyatlararo muloqotning bevosita shaxs psixologiyasi va intellektiga ta'sirini Milton Bennett o'zining Madaniyatlararo sezgirlikning rivojlanish modeli (DMIS) doirasida tushuntiradi.[9] Bennet inson tafakkurining rivojlanishini etnosentrizmdan (o'z madaniyatini yagona va yuqori deb bilish) etnorelyativizmga (boshqa madaniyatlarni teng huquqli ekanini tushunish va qabul qilish) o'tish bosqichlari orqali tahlil qiladi. Uning fikricha, intellektual yetuklik aynan etnorelyativistik bosqichda sodir bo'ladi.

Xovard Gardner o'zining "Ko'p qirrali intellekt nazariyasi" asarida an'anaviy intellekt (IQ) tushunchasini kengaytirib, uning tarkibiga "shaxslararo intellekt" (interpersonal intelligence) va "lingvistik intellekt"ni kiritadi.[10] Gardner modeli madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarining neyrolingvistik va kognitiv jihatdan shaxs intellektual arxitektonikasini boyitishini empirik isbotlab beradi.

O'zbekiston ilmiy maktabida yoshlar ma'naviyati, intellektual salohiyati va milliy g'oya uyg'unligi masalalari N. Jo'rayev, B. Aliyev va M. Quronovlarning ishlarida tizimli tahlil qilingan.[12.13-14] Xususan, N. Jo'rayev globallashuv asrida mafkuraviy immunitet shakllanishida yoshlarning tashqi dunyodan uzilib qolmasligi, aksincha, axborotlarni saralash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.[12] B. Aliyev esa jamiyat

modernizatsiyasida inson kapitali va intellektual elitani shakllantirish omillarini ijtimoiy-siyosiy jihatdan o'rganan.[13] X. To'rayev yoshlar omilini siyosiy modernizatsiya kontekstida tahlil qilib, ularni xalqaro integratsiyaga tayyorlashning institutsional mexanizmlarini ko'rsatib beradi.[15]

Biroq, madaniyatlararo muloqotning tarixiy-falsafiy ildizlari Markaziy Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlari merosiga borib taqaladi. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida dunyodagi xalqlar va shaharlarning bir-biri bilan o'zaro yordamlashuvi, ma'rifat almashishi umuminsoniy baxtga erishishning yagona yo'li ekanini falsafiy asoslaydi.[16] Abu Rayhon Beruniy o'zining «Hindiston» asari bilan dunyo ilm-fani tarixida ilk bor o'zga din, madaniyat va tilni imperiyaviy qarashlardan xoli, xolis xalqaro sotsiologik-metodologik mezonlar asosida o'rganish pretsedentini yaratgan.[17]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tizimlilik, qiyosiy-tarixiy tahlil, kognitiv yondashuv va sotsiologik empirizm tashkil etadi. Tadqiqot obektini har tomonlama o'rganish va olingan natijalarning validligini ta'minlash uchun quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

J. Nay, Yu. Xabermas, F. Fukuyama va Sharq mutafakkirlari asarlaridagi madaniyat, ratsionallik va muloqotga oid qarashlar bugungi kun prizmasida konseptual tahlil qilindi.

2025–2026-yillar davomida O'zbekiston Milliy universiteti (O'zMU), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (TDSHU) va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) talaba-yoshlari o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkazildi. Tanlanma hajmi 600 nafarni tashkil etdi (respondentlarning 54% ini yigitlar, 46% ini qizlar tashkil etdi; yosh diapazoni 18–26 yosh).

Miqdoriy so'rovnoma natijalarini chuqurlashtirish maqsadida xalqaro ta'lim dasturlari (Erasmus+, El-yurt umidi) ishtirokchisi bo'lgan 15 nafar yosh olim va doktorantlar bilan fokus-guruh muhokamasi o'tkazildi.

Tahlillar va natijalar. O'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma, statistik hisob-kitoblar va tizimli tahlillar natijasida madaniyatlararo muloqotning yoshlar intellektual va professional hayotidagi o'rni yuzasidan quyidagi muhim ko'rsatkichlar qo'lga kiritildi.

600 nafar respondent o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini falsafiy va sotsiologik nuqtai nazardan quyidagicha guruhlash va talqin qilish mumkin:

Epistemologik kengayish va gnoseologik yuksalish (45%)

Eng yuqori ko'rsatkich (45%) respondentlarning ilmiy va dunyoviy bilimlari ortgani, original adabiyotlarni o'qish imkoniyati kengayganini ko'rsatadi.

Bu jarayon falsafadagi gnoseologiya (bilish nazariyasi) bilan bevosita bog'liq. Til — shunchaki aloqa vositasi emas, u dunyoni anglashning o'ziga xos modelidir Lyudvig Vitgenshteyn ta'biri bilan aytganda, "Mening tilimning chegaralari. Xorijiy tilni egallash va asl manbalar (original adabiyotlar) bilan ishlash shaxsga subyektiv reallikdan obyektiv borliqqa ko'tarilish imkonini beradi. Tarjima qilingan adabiyotlardagi «mazmun

iyerarxiyasi” va interpretatsiya cheklovlaridan xalos bo‘lish, ilm-fanning fundamental asoslariga bevosita kirib borish shaxsning intellektual salohiyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Dogmatizmdan xalos bo‘lish va reflektiv tafakkurning shakllanishi (27%)

Respondentlarning 27 foizi tanqidiy fikrlash oshgani, stereotip va dogmalardan xoli bo‘lishni o‘rganganini ta’kidlagan.

Ushbu ko‘rsatkich ekzistensial va ratsionalistik falsafaning eng muhim prinsiplaridan biri — antidogmatizmni aks ettiradi. Inson o‘z madaniyati doirasidagina fikrlaganida, unda ijtimoiy stereotiplar va yopiq tizimli dunyoqarash shakllanadi. Boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot esa F.Bekon aytgan “g‘or afsonalari” va “teatr afsonalari” (ongni band etgan soxta tasavvurlar)ni parchalaydi. Tanqidiy fikrlash — bu o‘z-o‘zini anglash (refleksiya) va dialektik tafakkurning mahsulidir. Shaxs “mening madaniyatim va dunyoqarashim yagona haqiqat emas” degan g‘oyani qabul qiladi, bu esa uning bag‘rikenglik (tolerantlik) va plyuralistik dunyoqarashini yuzaga keltiradi.

Pragmatik va ijtimoiy-ontologik adaptatsiya (18%)

Xalqaro loyihalar, startaplar va transmilliy jamoalarda ishlash ko‘nikmasining shakllanishi (18%) masalaning amaliy-falsafiy jihatidir.

Bu ko‘rsatkichni pragmatizm va ijtimoiy ontologiya doirasida baholash lozim. Bugungi globallashuv davrida intellektual salohiyat faqat nazariy bilim bilan o‘lchanmaydi, balki uning “ijtimoiy kapital”ga aylanish qobiliyati ham muhim. Transmilliy jamoalarda ishlash — bu subyektlararo (intersubyektiv) muloqotning oliy shaklidir. Inson global miqyosdagi ijtimoiy borliqning faol subyektiga aylanadi. Bu yerda til va madaniyat sintezi iqtisodiy va ilmiy innovatsiyalarni (startaplarni) yuzaga keltiruvchi harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv turg‘unlik yoki kommunikativ cheklanganlik (10%)

Respondentlarning 10 foizi sezilarli o‘zgarish his qilmaganini yoki muloqot faqat maishiy darajada bo‘lganini qayd etgan.

Bu holatni germeneytik cheklanganlik yoki muloqotning funksional darajasi pastligi bilan izohlash mumkin. Agar inson madaniyatlararo muloqotda faqat utilitar (maishiy, kundalik ehtiyojlar) darajada qolib ketsa, muloqot uning ontologik borlig‘ini va kognitiv tuzilmasini o‘zgartira olmaydi. Bu fenomen insonning tashqi ta’sirlarga nisbatan ichki kognitiv tayyorgarligi (yoki intilishi) yo‘qligini, tizimli tafakkurning shakllanmaganini ko‘rsatadi. Bilim bor, lekin u intellektual transformatsiyaga (sifat o‘zgarishiga) olib kelmagan. Xulosa qilib aytganda dialektik tahlili shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning mutlaq ko‘pchiligi (90%) uchun xorijiy tillarni o‘rganish va madaniyatlararo muloqot shunchaki utilitar (foydali) ko‘nikma emas, balki shaxsning kognitiv, intellektual va ma’naviy transformatsiyasini ta’minlovchi kuchli sotsiomadaniy determinat (omil) bo‘lib xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari insonga xos bo‘lgan individual ongning boshqa

madaniyat bilan to'qnashganda boyishi va rivojlanishi haqidagi falsafiy konseptni (masalan, M.Baxtinning dialoq nazariyasini) amalda to'laqonli tasdiqlaydi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari (ayniqsa, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi) tahlil qilinganda, oxirgi yillarda oliy ta'lim tizimining baynalmilanallashuvi (internationalization) ko'rsatkichlari tubdan o'zgargani ma'lum bo'ldi.[2.3]

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan nufuzli xorijiy universitetlar va ularning filiallari (Buyuk Britaniya, AQSh, Koreya, Italiya, Hindiston oliy ta'lim muassasalari) talabalarga o'z vatanidan chiqmagan holda «akademik madaniyatlararo muloqot» muhitida tahsil olish imkonini bermoqda. «El-yurt umidi» jamg'armasi liniyasi bo'yicha xorijga yuborilayotgan yosh tadqiqotchilar soni har yili o'sib bormoqda, bu esa mamlakatga yangi innovatsion va intellektual kapital oqib kirishini ta'minlamoqda.

Olingan sotsiologik va institutsional natijalar madaniyatlararo muloqotning O'zbekiston yoshlari intellektual arxitektonikasiga va ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasiga ta'sirini tahlil qilishda bir qator murakkab, dialektik ziddiyatlar va konseptual diskussiyalarni yuzaga chiqaradi.

Jozef Nayning "Yumshoq kuch" nazariyasiga ko'ra, madaniyatlararo muloqot davlatlarning jozibadorligini oshiruvchi pozitiv elementdir.[4] Biroq, global axborot asrida ushbu muloqot ko'p hollarda teng huquqli dialektika asosida emas, balki G'arb yoki boshqa dominant global sivilizatsiyalarning bir tomonlama axborot-g'oyaviy ekspansiyasi shaklida namoyon bo'lmoqda. Buni Edvard Said o'zining "Orientalizm" asarida "madaniy imperialism" va intellektual tobelik (hegemoniya) xavfi sifatida asosli tanqid qilgan edi.[7]

O'zbekiston yoshlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomamizda talabalarning 45\% qismi muloqotni faqatgina "tashqi bilimlarni o'zlashtirish" vositasi deb baholagani ma'lum ma'noda passiv iste'molchilik tendensiyasidan dalolat beradi. Agar yosh avlodda chuqur milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va milliy falsafiy poydevor shakllanmagan bo'lsa, madaniyatlararo muloqot ularni ko'r-ko'rona taqlidchilikka (madaniy assimilyatsiyaga) va o'z milliy qadriyatlariga nisbatan nigilistik munosabatda bo'lishga olib keladi.

Bu ziddiyatni hal qilish uchun Sharq va G'arb falsafasini sintez qilish lozim. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida turli xalqlar va madaniyatlarning umumiy ezgu maqsad (baxtga erishish) yo'lida intellektual hamkorlik qilishi lozimligini ta'kidlagan.[16] Ya'ni, O'zbekiston yoshlariga "Milliy qadriyatlarga sodiqlik — umuminsoniy yutuqlarga ochiqlik" paradigmasini singdirish lozim. Yoshlarimiz faqatgina axborot iste'molchisi emas, balki milliy intellektual merosni global miqyosda retranslyatsiya qiluvchi faol subyektga aylanishlari shart. Madaniyatlararo muloqot subyektini o'z madaniyatining o'ziga xosligini anglagn holda o'z galar madaniyatini hurmat qiladigan etnorelyativistik darajaga ko'tarilishi kerak.[9]

Madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarining kengayishi va til bilish darajasining oshishi O'zbekiston yoshlar siyosati oldiga jiddiy geosiyosiy va iqtisodiy muammoni —

“kallalar oqimi” xavfini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Yuqori intellektual salohiyatga ega yoshlarning xorijiy madaniyatlarga, akademik muhitga oson moslashishi ularning rivojlangan davlatlarga ketib, qaytib kelmasligiga zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston strategik maqsadlarida ham ushbu modeldan keng foydalanish lozim. Ya’ni, xorijga ketgan yoki u yerda tahsil olayotgan intellektual yoshlarni vatanga jismonan doimiy qaytarish imkonsiz bo‘lgan taqdirda ham, ularning salohiyatidan virtual platformalar, qo‘shma innovatsion startaplar, xalqaro ekspertlik kengashlari va transmilliy konsalting vositasida tizimli foydalanish lozim. Madaniyatlararo ochiqlik oqibatida yoshlarning xorijga chiqishi milliy yo‘qotish emas, balki mamlakatning xalqaro tarmoqlardagi va global ilmiy markazlardagi intellektual lobbilarini hamda “yumshoq kuch” poydevorini yaratish imkoniyati sifatida qayta baholanishi va siyosiy jihatdan tartibga solinishi kerak.

Zamonaviy madaniyatlararo muloqotning katta qismi raqamli makonga (ijtimoiy tarmoqlar, raqamli xalqaro jamoalar) ko‘chgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlari raqamli madaniyatlararo muloqot yoshlarning global kognitiv moslashuvchanligini oshirishini tasdiqlaydi.[19] Ammo, tahlillar virtual muloqotning ko‘p hollarda o‘ta yuzaki va parchalangan (fragmented) xarakterga ega ekanligini ham ko‘rsatmoqda.

Raqamli platformalardagi algoritmlar va axborot pufakchalari (echo chambers) yoshlarni ko‘pincha faqat ko‘ngilochar, iste’molchilikka yo‘naltirilgan va manipulyativ kontent atrofida birlashtirmoqda. Bu esa yoshlar intellektini chuqurlashtirish va tizimlashtirish o‘rniga, ularda “klip mentaliteti”ni, diqqat-e’tiborning parchalanishini va axborot manipulyatsiyalariga nisbatan zaiflikni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, virtual muloqotni tizimli ravishda akademikashtirish, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida xalqaro onlayn qo‘shma o‘quv va ilmiy loyihalarni joriy etish orqali yoshlar raqamli intellektini rivojlantirish dolzarb strategik vazifadir.

Xulosa. Madaniyatlararo muloqot o‘zining tub ontologik mohiyatiga ko‘ra shunchaki tillararo axborot almashish mexanizmi emas, balki insoniyat tafakkur evolyutsiyasining oliy bosqichi — gnoseologik sintez fenomenidir. Falsafiy nuqtai nazardan yondashganda, har bir madaniyat borliqni anglashning alohida mukammal prizmasi bo‘lib, u yagona universal insoniy haqiqatning turlicha namoyon bo‘lish shaklidir. O‘zbekiston yoshlarining madaniyatlararo muloqot tizimiga faol integratsiyalashuvi ularning dunyoqarashida “Men” va “O‘zga” o‘rtasidagi dialektik munosabatni chuqur anglash imkonini beradi.

Georg Wilhelm Friedrich Hegel falsafasiga ko‘ra, shaxs o‘zligini faqat boshqa bir ong bilan to‘qnashganda va u tomonidan tan olingandagina to‘liq anglab yetadi. O‘zbekiston yoshlari ham o‘zlarining milliy, madaniy va intellektual identitetini mutloq izolyatsiyada (yopiqlikda) emas, balki aynan jahon madaniyatlari va ilg‘or ilmiy maktablari bilan faol dialogga kirishgan sharoitdagina to‘laqonli namoyon qila oladilar. Bu jarayon falsafadagi

ekzistensial ochiqlik tamoyiliga mos kelib, yoshlarni o‘z qobig‘iga o‘ralib qolishdan asraydi va ularga koinot miqyosida global fikrlash qobiliyatini baxsh etadi. Immanuil Kantning “Abadiy tinchlik to‘g‘risida”gi asarida ilgari surilgan umuminsoniy ahloq va global hamjihatlik ideallari yoshlarimiz ongida amaliy aks etadi [8].

Mavzu yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar, sotsiologik tahlillar va muhokamalar asosida O‘zbekiston yoshlarining intellektual salohiyatini madaniyatlararo muloqot orqali optimallashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-siyosiy va strategik tavsiyalar ilgari suriladi:

1. “Madaniyatlararo Muloqot va Global Siyosat” fanini integratsiya qilish: Respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichi o‘quv rejalariga ushbu fanni kiritish, unda yoshlarga milliy qadriyatlarni mustahkam asragan holda global dunyoga integratsiyalashuv metodikalarini va xalqaro etiket asoslarini o‘rgatish zarur.

2. “Yoshlar Raqamli Diplomatiyasi” platformasini yaratish: Tashqi ishlar vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida yosh olimlar, startapchilar va talabalarning xalqaro virtual muloqotini, xalqaro grantlardagi ishtirokini tizimli muvofiqlashtiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi yagona onlayn portal tashkil etish.

3. Hududiy “Madaniyatlararo muloqot maydonlari” yoki virtual makonda birlashtiruvchi, integratsiya qiluvchi va hamkorligini ta’minlovchi innovatsion platforma tarmoqlarini tashkil etish: Raqamli va madaniy tengsizlikni kamaytirish maqsadida, barcha viloyat markazlarida xorijiy mutaxassislar, “El-yurt umidi” jamg‘armasi bitiruvchilari va ko‘ngillilar ishtirokida mahalliy yoshlarning madaniyatlararo va intellektual kompetensiyalarini bepul rivojlantiruvchi markazlar ochish.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekiston yoshlarining intellektual salohiyatini madaniyatlararo muloqot vositasida ro‘yobga chiqarish — bu shunchaki pragmatik xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy vazifa emas, balki mamlakatimizda uchinchi Renessansning ma’naviy-falsafiy arxitektonikasini yaratish demakdir. Sharq falsafasining asosiy ustunlari bo‘lgan bag‘rikenglik, insonparvarlik va ma’rifatparvarlik qadriyatlari G‘arbning ratsionalizmi hamda global dunyoning texnologik yutuqlari bilan sintez qilinganida, mamlakatimizda nafaqat intellektual raqobatbardosh, balki dunyo tamaddunini yaxshilikka o‘zgartirishga qodir bo‘lgan yangi avlod — “fozil insonlar” qatlami yetishib chiqadi. Davlat va jamiyatning ushbu yo‘nalishdagi sinergetik strategiyasi global raqobat asrida barqaror taraqqiyotning eng ishonchli ekzistensial kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B. 112.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. // *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami*. – Toshkent, 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. // *Xalq so‘zi*. – 2023-yil 12-sentabr.

4. Nye, Joseph S. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. – New York: PublicAffairs, 2004. – P. 33-45.
5. Huntington, Samuel P. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. – New York: Simon & Schuster, 1996. – P. 20-35.
6. Fukuyama, Francis. *Identity: The Demand for Dignity and the Politics of Resentment*. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2018. – P. 62.
7. Said, Edward W. *Orientalism*. – New York: Pantheon Books, 1978. – P. 95.
8. Habermas, Jürgen. *The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society*. – Boston: Beacon Press, 1984. – P. 143.
9. Bennett, Milton J. *Basic Concepts of Intercultural Communication: Selected Readings*. – Intercultural Press, 1998. – P. 23-40.
10. Gardner, Howard. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. – New York: Basic Books, 2011. – P. 215.
11. Saxenian, AnnaLee. *The New Argonauts: Regional Advantage in a Global Economy*. – Cambridge: Harvard University Press, 2006. – P. 18-32.
12. Jo‘rayev N. Mafkuraviy immunitet va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2019. – B. 88.
13. Aliyev B. Siyosiy sotsiologiya va jamiyat transformatsiyasi. – Toshkent: “Akademnashr”, 2021. – B. 154.
14. Quronov M. Global jarayonlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: “Akademiya”, 2018. – B. 210.
15. To‘rayev X. Siyosiy modernizatsiya jarayonida inson kapitali va yoshlar omili. // *Siyosatshunoslik jurnali*. – Toshkent, 2024. – №2. – B. 14-22.
16. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 1993. – B. 65-72.
17. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. II tom: Hindiston. – Toshkent: “Fan”, 1963. – B. 44.
18. Hall, Edward T. *The Silent Language*. – New York: Anchor Books, 1959.
19. OECD. *PISA 2018 Results (Volume VI): Are Students Ready to Thrive in an Interconnected World?* – Paris: OECD Publishing, 2020. – P. 112.

